I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda –YAHM) hajmi 48 328,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur‘ati 8,8 foizga teng bo‘ldi.

YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 119,5 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo‘shgan hissasi 8,5 % ga yetdi.



Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) - milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

	Mlrd. so‘m		*o‘sish sur‘ati, % da*
	2023- yil	*2024- yil*	
I. YAHM, jami	**37 162,5**	**48 328,2**	**108,8**
shu jumladan:			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	36 579,5	47 866,0	108,9
mahsulotlarga sof soliqlar	583,0	462,2	102,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**36 579,5**	**47 866,0**	**108,9**
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**4 074,9**	**4 507,5**	**103,5**
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**27 738,9**	**37 626,0**	**110,3**
Sanoat	26 452,2	35 925,1	109,4
Qurilish	1 286,7	1 700,9	127,8
Xizmatlar	**4 765,7**	**5 732,5**	**105,4**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 084,6	1 264,9	107,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	575,0	717,0	112,3
boshqa xizmat tarmoqlari	3 106,1	3 750,6	103,5

2024- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 44 744,2 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,8 % ga yuqoridir.



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning hajmi va o‘sish sur’atlari diagrammasi



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

(jamiga nisbatan % da)

	Mlrd. so‘m	
	2023- yil	***2024- yil***
I. YAHM, jami	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:		
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	98,4	99,0
mahsulotlarga sof soliqlar	1,6	1,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**100,0**	**100,0**
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**11,1**	**9,4**
sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**75,8**	**78,7**
Sanoat	72,3	75,1
Qurilish	3,5	3,6
Xizmatlar	**13,1**	**11,9**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	3,0	2,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1,6	1,5
boshqa xizmat tarmoqlari	8,5	7,8

2024- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 99,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 9,4 % ni, sanoat tarmog‘i 75,1 % ni, qurilish 3,6 % ni va xizmatlar sohasi 11,9 % ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*



2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,5 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 9,4 %), sanoatda – 109,4 % (75,1 %), qurilishda – 127,8 % (3,6 %), xizmatlar sohasida – 105,4 % ni (11,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 107,5 % (2,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,3 % (1,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,5 % dan (7,8 %) iborat bo‘ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi 10 306,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 8 773,0 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 21,5 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 24,0 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining o‘sishi bilan bog‘liq.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)